

INTEGRATSIYALASHGAN MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Ro'zixon Hayitova

**Farg'ona Davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va
San'atshunoslik fakulteti "Musika ta'limi" yo'nalishi
3-bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20743635>

Annotatsiya: Ta'lim tizimida fanlarning jumladan musiqa darslarini samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, maktab ta'limida musiqa darslari an'anaviy hech qanday yangiliklarsiz olib borilayotgani vaziyatni yanada jiddiylashtiradi. Maktablarda darslarni kuzatish va tahlil qilish orqali o'quvchilarda musiqaga qiziqish sustligini ko'rish mumkin. Chunki odatiy daftarga konspekt qilish va qo'shiq kuylashni o'ziga darsni yuqori saviyaga olib chiqmasligini amaliyot davri orqali tushunilishi mumkin. Bu muammolarni hal qilishda esa zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda integratsion metodlar ya'ni fanlararo bog'liqlikdan foydalanish orqali darsni samaradorligini yuqori darajaga olib chiqishga erishiladi. Shu bois, ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarida fanlararo integratsiyani tashkil etishning samarali metodikasi va dars ishlanmalari tahlil qilinadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish va dars jarayonini qiziqarli tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiya bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Integratsion metod, musiqa madaniyati, metodik model, artpedagogik yondashuv, STEAM texnologiyasi, fanlararo bog'liqlik, dars ishlanmasi, baholash mezonlari

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar zamirida ham musiqa madaniyati fanini o'qitish sifatini yaxshilash va uning metodologik asoslarini zamonaviy talablariga moslashtirish vazifasi turibdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan madaniyat va san'atning jamiyat taraqqiyotidagi o'rne, ayniqsa yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda musiqa san'atining ahamiyati beqiyos ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan¹Maqolaning nazariy qonuniyatlari va yaxlitlik va tizimlilik prinsiplari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni² va D.Soyipova³ va G.Sharipova⁴ning metodologik ta'limotlariga tayanildi.

Integratsion darslar uchun artpedagogik yondashuvga asoslangan modeldan foydalanib, integratsion darslar uchun moslashtirildi. Unda har bir tarkibiy qism mavzuning mazmun-mohiyatiga asoslanib o'zgartirishlar kiritildi. Aynan bu model tanlanganligini sababi, artpedagogik va integratsion yondashuv bir-biriga uzviy bog'liq hisoblanadi. Chunki bu

¹ Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

³ Soipova D. Musika o'qitish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2009.

⁴ Sharipova G. M., Asafova D., Xodjayeva Z. Musika o'qitish metodikasi – Toshkent: "Barkamol fayz media", 2014.

yo'nalishlar bitta fan doirasida emas, balki ko'pfanlik tamoyillariga tayanadi. Ikkala model ham to'liq tahlil qilinsa, ulardagi ta'limiy maqsadlar o'xshashligini ko'rish mumkin. Quyida artpedagogik yondashuvdagi va integratsion darslar uchun yaratilgan model taqdim etiladi. Artpedagogik darslar uchun mo'ljallangan modelning tarkibiy qismlari o'rganib chiqildi. Integratsion dars va artpedagogik yo'nalishlar bir-biriga uzviy bog'liqligi uchun aynan shu modeldan foydalanildi. O'rganilgan barcha tahlil va tajribalar asosida integratsion darslar uchun mo'ljallangan metodik model ishlab chiqildi. Bunda metodik model integratsion darslarni tashkil qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki bu o'rganilgan tajribalar milliy va xorijiy ta'lim tizimlari yutuqlaridan ilhomlangan holatda yaratildi. Har bir o'rganib chiqilgan metodologiya va xorijiy olimlarning fikrlari ham bu modelni yaratilishida muhim omil sifatida ko'rildi. Bundan tashqari, dunyo bo'ylab o'zining mashhur ta'lim tizimiga ega davlatlarning integratsion g'oyalari tizimli ravishda o'rganildi. Bu model musiqa madaniyati darslari uchun ko'pfunksiyali metod vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, bu modelni har bir sinfning musiqa faniga dars ishlanmalar yaratishga yordam beradi. Jadvalning eng muhim qismlaridan biri bu maqsad blokidir. Chunki natijaga erishish yo'lida maqsad bloki kompas vazifasini bajaradi. Har bir jarayon va faoliyatni bajarishda unga aniq maqsad qo'yilmaganda, u ish yarim yo'lda yo'nalishini yo'qotadi va kutilgan natijaga erishilmaydi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, bu metodning qo'llashni boshlanishi maqsad blokini tuzishdir. Mavzuning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib maqsad blokini 3 ga bo'linadi va ularning har biri o'z o'rniga ega.

1. Metodologik blok - bu blokni o'rganilsa, bu integratsion darslarni tashkil etishda nazariy asoslarini ochib beruvchi qism hisoblanadi. Bunda har bir qo'llaniladigan qoida, metodlarning mazmun-mohiyati batafsil yoritiladi. Bu blok ham o'zini ichida tarkibiy qismlarga bo'linadi:

a) Omillar - tashqi va ichkiga bo'linadi. Ichki omilda o'quvchilarni musiqa darsiga qiziqishi, o'zlashtirishi va faolligi ko'rib chiqiladi. Tashqi omilda esa maktab sharoiti, o'quv xonalari izchil o'rganilib chiqiladi.

b) Tamoyillar - bu qism ham metodologik bo'limning muhim bo'g'inidir. Mavzudan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, modelni fanlararo bog'liqlik, shaxsga yo'naltirilganlik, zamonaviy ta'limga moslashuvchanligi va reflektiv (dars jarayonidan o'ziga xulosalar chiqarishi, o'zini o'zi baholash) kabi tamoyillar yetakchi hisoblanadi.

c) Komponent - metodologik bo'limning yakunlovchi va tashkiliy blokni boshlab berish uchun ko'prik vazifasini o'taydi. Bunda tashkiliy blokni qo'llay olish uchun nazariy qismning komponentlaridan ya'ni tarkibiy qismlaridan foydalaniladi. Mavzuga mos bo'lgan eng muhimlaridan integratsion, amaliy-ijodiy, kognitiv va reflektiv komponentlar bir butunlikda shu bo'limni mustahkamlaydi.

2. Tashkiliy blok - bu esa integratsion darslarni tashkil etishni eng muhim bo'g'inidir. Ya'ni bu qismda metodologik bo'limda o'rganilgan xulosalardan kelib chiqqan holda amaliy dars jarayoniga tadbiiq etiladi. Tashkiliy blok metodologik modelning xaritasidir, agar xaritagga amal qilsa, xazinaga ya'ni maqsadga erishiladi. Bu blok modelning eng faol qismi hisoblanadi. Bunda fanlar va shakllari bo'yicha musiqa madaniyati balki fanlararo bog'lash usulidagi boshqa fanlar darslarida ham bemalol qo'llash mumkin. Bundan tashqari, bu qismda integratsion dars uchun kerakli metodlardan foydalanish ham kiritiladi. Bularndan mavzuga bo'lgan integratsion, kreativ va zamonaviy yo'nalishdagi shuningdek STEAM texnologiyasi eng keraklilari

hisoblanadi.

Nega aynan shu yo'nalishdagi metodlar tanlanganligini sababi o'quvchilarda oddiy, zerikarli va bir xillikdagi metodlardan zerikishgan, shuni inobatga olgan holda ularga zamonaviy, kreativ yo'nalishdagi hali hech kim qo'llamagan metodlarni integratsion uslub orqali jamlash musiqa darsini eng yuqori cho'qqilarga olib chiqadi. Shuningdek, modelga muvofiq holatda STEAM texnologiyasini qo'llash mavzuni yoritishda beqiyos o'ringa egadir, chunki bu uslub o'zini o'rnini jahon miqyosida oqlagan va milliy ta'lim tizimida ham muhim o'rinni egallay olgan. STEAM yo'nalishi ham integratsiyaning bir ko'rinishidir, sababi u tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va aniq fanlarni uyg'unlashtirgan yaxlit uslubdir. Bu metodlarni dars jarayoniga qo'llash uchun ularning vositalarini o'rni ham muhimdir. Modelning vositalari sifatida ko'rgazmali-interaktiv qurollar, AKT texnologiyalar va zamonaviy o'quv metodlarini kirgazish mumkin.

3. Baholovchi - natijaviy blok - bu qism modelning natijasini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Bu blokda integratsion metodning qay darajada natijaga erishgani, o'quvchilarda qiziqish uyg'ota olgani va yakuniy xulosalar yoritiladi. Bu qism yakunlovchi va xulosalovchi barcha ma'lumotlarni jamlaydi. Bulardan monitoring vaqti ya'ni bosqichlaridir. Ularni eng asosiylarigina jadvalga kiritilgan. Birinchisi, ta'kidlovchi qism orqali yangi metod ya'ni tajriba boshlanishidan oldingi bilim darajasini belgilaydi. Ikkinchisi, shakllantiruvchi qismda esa dars jarayonida yangi modelni o'quvchilarga qo'llaganda ularda bo'ladigan o'zgarishlar aniqlanadi. Uchinchisi, yakunlovchi bo'lim oldingi bosqichlarni jamlab, dars oxirida yangi model orqali erishilgan yutuqlar va natijalarni belgilaydi. Bundan tashqari, bu model asosida dars jarayoni bo'lib o'tganda ularni bilimi odatiy baholash orqali qo'yilmaydi, ya'ni yangicha mezonlar asosida tekshiriladi. Eng asosiy muhim mezonlar sifatida kognitiv (O'quvchidagi musiqiy atamalar va nazariyalar o'zlashtirganligi), integratsion-amaliy (Musiqani boshqa fanlar bilan bog'liqlikida qay darajada tushuna olganligi), ijodiy-rivojlantiruvchi (O'quvchining ijodiy yangiliklar qilishi va darsdan tashqari ham musiqiy rivojlanishga intila olishi)larni kiritish mumkin. Bu blokning yana bir o'ziga xosligi unda ko'rsatkichlar jadvali ham bor. Bu bo'lim ham eng muhim komponentlardandir, chunki bu qismda o'quvchilarning bajargan ishlari, darsdagi faolligi va integratsion metodlar yordamida o'quvchilarga qay darajada tushunarli bo'lganini batafsil yoritiladi. Bu qismning uzviy davomi sifatida darajalar bo'limini keltirish mumkin. Darajalarda o'tkazib bo'lingan dars jarayonidan so'ng o'quvchilardagi umumiy xulosalar yoritiladi. Jumladan, past, o'rta va yuqori darajalarga bo'lib, o'quvchilarni qay biri qaysi bosqichga to'g'ri kelsa, shularni tahlil qilinib boriladi. Ularni qay birida o'sish, boshqasida esa hech qanday o'zgarish bo'linmaganligi kabi tahlil qilinadi. Ushbu modeldagi barcha bosqichlar to'liq amalga oshirilib bo'lingandan so'ng natija bo'limiga yakunlovchi umumiy xulosa yoziladi.

Yangi taqdim etilgan integratsion darslarni tashkil etish metodikasi uchun yaratilgan modelni har bir 1- sinfdan 7-sinfgacha bo'lgan musiqa darslaridagi mavzularga dars ishlanmadan namunalar ishlab chiqish mumkin. Bu namunaviy dars ishlanmalari musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun dastlabki integratsion qo'llanma vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti,

2021.

3. Avloniy A. Tanlangan asarlar.2 jildlik. – Toshkent; Ma’naviyat, 1998.

4. Qodirov R.G'. Musiqa pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Musiqa" nashriyoti, 2009.

5. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2009.

6. Sharipova G. M., Asafova D., Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi– Toshkent: "Barkamol fayz media", 2014.

